



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 16-dekabr, shanba,
149 (23.870)-son

**KUN
HIKMATI**

Harakatsizlikning
asosiy sababi
fikrlamaslikdir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident farmoniga ko'ra

Klasterlar viloyat hokimi qarori asosida tashkil etiladi

Davlatimiz rahbari "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" farmon qabul qildi.

Unga ko'ra, 2024-yil hosildan boshlab:

Paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar o'rtasida paxta xomashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida O'zbekiston Respublika tovar-xomshayo birjasining "paxta xomshayosi sektori"da har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolar natijalariga ko'ra tuziladi;

Fyuchers shartnomasiga muvofiq yetkazib berilishi lozim bo'lgan hajmdan ortiqcha yetishtirilgan, shuningdek, klaster bilan fyuchers shartnomasi tuzmagan holda, o'z mablag'lari, shu jumladan, jalb qilingan mablag'lari va tijorat kreditlari hisobiga yetishtirilgan paxta xomashyosi yetishtiruvchilar tomonidan birja orqali tadbirkorlik subyektlariga sotiladi yoki (va) qayta ishlanadi.

Farmer xo'jaligi o'z majburiyatlarini bo'yicha, shu jumladan, yer ijarasi, fyuchers va kredit shartnomalarida nazarda tutilgan majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulki bilan javob beradi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit resurslari hisobidan:

a) fyuchers shartnomasi tuzgan yetishtiruvchi va urug'chilik subyektlariga har yili 1-oktabrdan boshlab, paxta xomshayosi yetishtirish uchun - paxta xomashyosi qiymatining 60 foizigacha yillik 10 foizda (shundan, bank marjasi 2 foiz) 14 oyga, shu jumladan, 12 oylik imtiyozli davr bilan kredit ajratiladi;

b) klasterlarga paxta xomshayosi xaridi bo'yicha yakuniy hisob-kitob uchun paxta xomshayosi qiymatining 80 foizigacha yillik 10 foizda (shundan, bank marjasi 2 foiz) 10 oyga, shu jumladan, 6 oylik imtiyozli davr va oxirgi 4 oy davomida teng ulushlarda qaytarish sharti bilan;

ijara huquqi mavjud bo'lgan yer uchastkasida paxta xomashyosi yetishtirish uchun paxta xomshayosi qiymatining 60 foizigacha yillik 10 foizda (shundan, bank marjasi 2 foiz) 24 oyga, shu jumladan, 18 oylik imtiyozli davr va oxirgi 6 oy davomida teng ulush-

larda qaytarish sharti bilan; ijara huquqi mavjud bo'lgan yer uchastkasida yetishtiriladigan paxta xomashyosining yig'im-terimi uchun paxta xomashyosi qiymatining 20 foizigacha yillik 10 foizda (shundan, bank marjasi 2 foiz) 12 oyga, shu jumladan, 3 oylik imtiyozli davr va oxirgi 9 oy davomida teng ulushlarda qaytarish sharti bilan kredit ajratiladi;

v) fyuchers shartnomasiga asosan, yetishtiruvchilardan qabul qilingan paxta xomshayosi uchun to'lovlarining 80 foizi paxta xomashyosi qabul qilib olingan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, qolgan hismi moliya yilining 31-dekabr kuni-ga qadar amalga oshiriladi;

g) ajratilgan kredit mablag'lari hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar), shu jumladan, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar yetishtiruvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi (bundan urug'lik chigit mustasno);

d) yetishtiruvchilar, klaster va urug'chilik subyektlari kredit buyurtmalarini Qishloq xo'jaligi vazirligining "Agroplatforma" axborot tizimi orqali elektron shaklda taqdim etadi.

Klasterlar faoliyati qishloq xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo'lgan talabgorlar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tugatiladi.

Klaster va boshqa to'qimachilik korxonalari tomonidan paxta xomashyosi to'liq elektron tarozi orqali qabul qilinadi hamda ishlab chiqarilgan paxta tolasini avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimi joriy qilinadi.

Klasterlarga qabul qilib olingan paxta hosili uchun elektron hisobvara-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini klasterlar tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarga (farmer xo'jaliklari) paxta hosili uchun to'langan to'lovga mutanosib miqdorda hisobga olishga ruxsat etiladi.

KO'HNA KENT QISHDA HAM GULLARGA BURKANADI



Bugun qishning o'n oltinchi kuni. Ammo Samarqand shahri ko'cha va xiyobonlarida gullar ochilib turibdi. Sovuq kunlarda ham ko'hna va navqiron kentning go'zal-ligini saqlab turish uchun sovuqqa chidamli gul ko'chatlari o'tqazilmoqda.

- Qish mavsumi uchun ko'cha va xiyobonlarga sovuqqa chidamli 3 milliondan ziyod gul ko'chatlari ekilishi rejalashtirilgan, - deydi Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi agronomi Xurshid Ravshanov. - Shu paytga qadar 1 milliondan ortiq "Viola" gul ko'chati ekildi. O'tgan yili ham qish oldidan shahar ko'chalarida ana shunday gul ko'chatlari o'tqazilgan edi. Kutilmagan kelgan anomal sovuq ularga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Imkoni boricha gullarni saqlab qolish choralari ko'rildi.

Bu qish mavsumida ham gullarga yetadigan talafotning oldini olish maqsadida zarur choralar ko'rilmogda. Anomal sovuq kuzatilishi mumkin bo'lsa, bu gullarni plyonka bilan yopish choralari ko'riladi.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

BOJXONA MAVSUM BETALAFOT O'TISHIGA YORDAM BERMOQDA

Viloyatimizda kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o'tkazish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi kuzgi daraxt ekish mavsumini sifatli tashkil etish maqsadida Bojxona qo'mitasi raisi boshchiligidagi respublika ishchi guruhi tomonidan amaliy ishlar olib borildi.

Har bir tuman va shaharda ko'p qavatli uylar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ta'lim muassasalari, yotoqxonalar, tibbiyot muassasalari boshqa ijtimoiy soha obyektlarini qish mavsumiga tayyorlash, kommunikatsiya tarmoqlari, isitish tizimlari, tabiiy gaz hamda elektr ta'minotining holatini o'rganish bo'yicha guruhlar shakllantirilib, kunlik ma'lumotlar monitoringi yuritildi.

- O'rganishlar natijasida 535 ta ko'p qavatli uy, 345 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 745 ta maktab, 206 ta poliklinika va qishloq vrachlik punktlari, 23 ta shifoxona, 267 ta mahalla binolarida to'rt mingdan ortiq muammoli masalalar aniqlandi, - deydi Bojxona qo'mitasi axborot xizmati rahbari Nurbek Salomov. - Shundan, 2586 ta obyektda aniqlangan 3787 ta muammoli masalalar to'liq bartaraf etildi. Viloyatdagi ijtimoiy soha obyektlari va aholiga qariyb 102 ming tonna ko'mir yetkazib berildi. Viloyatning olis tumanlariga ko'mir mahsulotlari yetkazib berilishi alohida nazoratga olindi. Shuningdek, aholiga 857 mingdan ortiq gaz ballonlari tarqatildi.

Elektr ta'minoti bo'yicha aniqlangan muammolar yuzasidan 185 ta transformator ta'mirlandi va 9 tasi yangilandi, 2393 ta yangi temir beton ustun



o'rnatilib, 122,5 kilometr kabel tortildi.

Ijtimoiy soha obyektlarida davlat - xususiy sheriklik asosida isitish tizimini modernizatsiya qilish uchun bajarilgan ishlarga budjetdan qo'shimcha 5,6 milliard so'm ajratilishi ta'minlandi.

Ichki yo'llar holatini yaxshilash uchun 59,6 kilometr yo'lga asfalt yotqizildi, 11,5 kilometr avtomobil yo'llari betonlashtirildi, 113,2 kilometr ichki yo'llar shag'allashtirildi.

Kuzgi daraxt ekish mavsumi davomida korxona va tashkilotlar, keng jamoatchilik tomonidan 7 million 200 ming tupdan ziyod daraxt ko'chatlari, butalar ekildi. Hududlarda hokimliklar, sektorlar va korxona, tashkilotlarning bog'lari yaratildi. Jumladan, Bulung'ur tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivida "Bojxona bog'i" tashkil etilib, 2154 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Ishchi guruh faoliyati davom etmoqda.

Sanoqli kunlardan so'ng 2024-yil kirib keladi. Yangi yilni ko'tarinki kayfiyatda qarshi olish, "Prezident archasi" tadbirlari tashkil etish uchun tayyorgarlik ishlari davom etmoqda.

YANGI YIL ARCHASI TADBIRLARI O'TKAZILADI

Samarqand shahar hokimligi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yil 15-dekabrda 2024-yil 10-yanvarigacha shahardagi sakkiz hududda "Yangi yil archasi" bayram tadbirlari tashkil etiladi.

Samarqand shahridagi Teatr va Ko'ksaroy maydonlari, Temir yo'l vokzali hududi, Alisher Navoiy ko'chasi, Sartepa va Qorasuv massivlarida, shuningdek, Kimyogarlar, So'lim va Farhod shaharchalarida bayram archalari o'rnatilgan.

Shaharning markaziy ko'chalarida joylashgan korxona va tashkilotlar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari ham bayram ruhida bezatiladi. Bozorlarda arzonlashtirilgan savdo yarmarkalari o'tkaziladi.

Bugunning gapi

DO'KONDAN MUDDATI O'TGAN MAHSULOT SOTIB OLSANGIZ, NIMA QILASIZ?

Mahsulotni qayta do'konga olib borasizmi yoki tashlab yuborasizmi? Aksariyat ko'pchilik iste'molga yaroqsiz mahsulotni do'konga qaytarib, vaqtini yo'qotib, asabini buzishdan ko'ra, uni tashlab yuborishni afzal ko'radi. Shuning uchun ham bugun oziq-ovqat do'konlaridan yaroqlilik muddati o'tgan mahsulotlarni istagancha topish mumkin.

Yaqinda viloyat hokimligi tomonidan tuzilgan ishchi guruh profilaktik ishlari olib borish va sertifikatlanmagan mahsulotlarni savdodan chiqarish maqsadida ayrim oziq-ovqat do'konlarini nazoratdan o'tkazdi. Ishchi guruh muddati o'tgan oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari, qalbaki mahsulotlarning ham savdo do'konlarida sotilayotganini aniqlagan. O'rganish yakunlari viloyat hokimi ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda tahlil qilindi.

Shu o'rinda meni anchadan beri o'ylantirib kelayotgan ayrim mulohazalarimni bayon qilishni

lozim topdim.

Taqdir taqozosi bilan bundan yetti yil oldin Rossiyada oziq-ovqat do'konida ishladim. Har kuni ertalab saqlash muddati qisqa bo'lgan sut va sut mahsulotlari do'konga keltirilardi. Sutning yaroqlilik muddati bir hafta bo'lsa-da, mahalliy aholi o'sha kuni keltirilganini olardi. Sut mahsulotlarini o'sha kuni sota olmasam, keyingi kuni sotishim qiyinlashardi. Uchinchi kunga o'tsa, odamlar umuman sotib olishmasdi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



Oliy ta’limda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi amalda

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabr-dagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda mam-lakatimizni yanada rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilab olindi.

Ushbu hujjatning birinchi ustuvor yo‘nalishidagi “Ta’lim tizimi islohotlari” bo‘limida oliy ta’limga ham alohida e’tibor qaratilib, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, qabul kvotalarini bosqich-ma-bosqich ko‘paytirib borish orqali yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, “Top-500” talikka kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish, qo‘shimcha 120 ming o‘rinli o‘quv binolari hamda 150 ming o‘rinli talabalar turarjoylarini qurish va boshqa maqsadlar belgilangan.

Strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, ichki iste’mol bozorini sifatli go’sht, sut, tuxum va boshqa mahsulotlar bilan to‘ldirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari soha xodimlari oldida turgan asosiy vazifa bo‘lsa, respublikamiz uchun veterinariya, chorvachilik, agrotexnologiya, biotexnologiya va agroiqti-sodiyot tarmoqlari bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash asosiy maqsadimizdir.

Hozirgi paytda universitetda 22 ta ta’lim yo‘nalishi, 32 ta magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 5800 dan ortiq talaba tahsil olmoqda va ularga 380 dan ortiq professor-o‘qituvchi dars berib kelmoqda.

Universitetning qoshida Nukus va Toshkent filiallari, respublikamizning turli viloyatlarida joylashgan 4 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 5 ta veterinariya meditsinasi texnikumi, 1 ta akademik litsey va Oqdaryo tumanida joylashgan, maydoni 34,8 gektarga ega bo‘lgan o‘quv-tajriba xo‘jaligi, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda ARM fondida 691 mingga yaqin kitob saqlanib, ularning salkam 60 foizga yaqini elektron shaklga o‘tkazildi. Ushbu fondan universitet filiallari va texnikumlarning talabalari foydalanish imkoniyatiga ega.

Universitet hududida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish uchun 444 kW quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatildi.

Ikki tomonlama tan olinadigan diplomli tizimni yo‘lga qo‘yish borasida ham universitetda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Belarus davlatining Vitebsk veterinariya meditsinasi akademiyasi hamda Grodno agrar universiteti bilan qo‘shma dasturlar asosida veterinariya formatsevtikasi va zootijeneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 20 nafar talabamiz 2023-yilda bakalavr darajasini olishga erishdi.

Universitetda 80 ga yaqin xorijiy universitetlar bilan o‘quv va ilmiy sohada hamkorlik o‘rnatildi. Ayni paytda veterinariya va chorvachilik sohasi bo‘yicha xorijdan 23 nafar professor-o‘qituvchi ta’lim jarayoniga jalb etildi.

Talabalarining turarjoyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida universitet hududida 750 o‘ringa mo‘ljallangan talabalar turarjoyi qurilmoqda.

Ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun 2024-yilda veterinariya klinikasi va kasalliklar texnoparki binosini qurish hamda veterinariya laboratoriyasi o‘quv binosini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Olib borilayotgan ishlardan ko‘zlangan pirovard maqsad – veterinariya va chorvachilik sohasida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish, talabalarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, o‘qitish uslublarini takomillashtirishdan iborat.

Xudoynazar YUNUSOV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
rektori, professor,
Xudoyor NORBOYEV,
universitet dotsenti.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotiga ko’ra, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2023-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 417,6 milliard so’mgga oshib, 3 716,5 milliard so’mgga yetdi.

Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 15,9 foizga yetib, o’sish sur’ati 112,9 foizni tashkil etdi.

Respublikamizdagi ayrim maktablarda o‘quvchilarni ikkita chet tiliga va bitta kasb-hunarga o‘rgatish joriy etilmoqda. Prezidentimiz Oqdaryo tumanidagi 32-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga tashrfi chog‘ida bu haqda topshiriq va ko‘rsatmalar bergandi. Joriy-yilda viloyatimiz tumanlarida o‘ntadan maktabda kasb-hunarga o‘rgatish yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Biz Samarqand tumanida yuqori sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatish ishlari qanday yo‘lga qo‘yilgani bilan qiziqdik. Tumanda 53 ta maktab bo‘lib, o‘ntasida yangi o‘quv yilidan kasb-hunarga va ikkinchi xorijiy tilga o‘rgatish to‘garaklari ochilibdi.

MAKTABLARDA KASB-HUNAR O‘RGATILYAPTIMI?



Dastlab tumandagi 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabida bo‘ldik. Maktab hovlisida 2 sotix yerdan issixona bo‘lib, unda limon, yertut, ko‘kat va turli gul ko‘chatlari tayyorlanyapti.

O‘tgan yili 1100 ta limon ko‘chati tayyorlab sotgandik, bu yil 3 mingta limon ko‘chati tayyorlaymiz, - dedi maktab direktori Rohila Eshonqulova. – Ko‘chatchilik va issixona ishini asosan o‘g‘il bolalar qiziqib o‘rganyapti. Haftada uch kun darsdan keyin issixonada ishlaymiz. Bolalar o‘zlari vaqtini bilib kelishadi. Kelishuvga ko‘ra, tadbirkor bog‘idagi daraxt shoxlarini bizga yuboradi. Biz ularni qalamcha shakliga keltirib, ekamiz. Bahorda bu qalamchalar tomirlaydi. Issixonadan tashqari hovlida ham tok ko‘chatlari ekanmiz. Shuningdek, atirgul va xrizantema ko‘chatlarini ko‘paytirypmiz. So‘ragan maktablarga ko‘chatlarimizdan tekinga beryapmiz.

Maktabda qizlar uchun tikuvchilik to‘garagi ochilgan bo‘lib, unda tikish-bichishdan tashqari zargarlik, to‘quvchilik o‘rgatilmoqda.

- Ikki oydan beri to‘garakka kelib, zargarlikni o‘rganyapman, - deydi 8-sinf o‘quvchisi Shahinabonu Po‘latova. – Soch uchun bezakli taqinchoqlar, toj, sirg‘a kabi buyumlar tayyorlayapman. Bu ishga juda qiziqib qoldim.

To‘garak rahbari Dilfuza Roziqova buyurtma asosida sahna bezagi uchun turli gullar yasashni ham o‘rgatmoqda.

O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazganimizda ko‘pchiligi xitoy tilini o‘rganishni xohlashdi, - dedi direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Sabrina Hakimova. –Samarqand davlat chet tillar institutida ingliz tili yo‘nalishida tahsil olganman. Shuningdek, shahardagi Konfutsiy institutiga qatnab, xitoy tilini ham o‘rgangan edim. O‘quvchilar istagiga ko‘ra, maktabda ikkinchi xorijiy til sifatida xitoy tilini o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydik.

Saylov jarayonida xitoylik kuzatuvchilar tasodifan maktabimizdagi saylov uchashtasiga kelishdi, - dedi maktab direktori. – Ular maktabda o‘quvchilarga xitoy tili o‘rgatilayotganini eshitib, rosa xursand bo‘lishdi. Bu haqda o‘zlarining ommaviy axborot vositalarida ham yoritishdi. Shundan so‘ng Konfutsiy institutidan o‘qituvchilar kelib, bizga xitoy tili bo‘yicha darsliklar kitoblar sovg‘a qilishdi.

Tumandagi 33-umumiy o‘rta ta’lim maktabida ham yuqori sinf o‘quvchilariga kasb-hunar o‘rgatish yo‘lga qo‘yilibdi.

Mahallamiz aholisi mebel yasash bilan shug‘ullanadi, - dedi maktab direktori Mamlakat Ravshanova. – Shuning uchun o‘g‘il bolalarga mebelsozlik kasbini o‘rgatypmiz. Maktabda alohida xona tashkil etdik, unda o‘quvchilar mebel yasash haqida nazariy bilim oladi. Amaliy bilimlarni tadbirkorning sexida o‘rganyapti. Qiz bolalarga esa tikuvchilikni o‘rgatypmiz. Tuman hokimligi tomonidan 10 ta tikuv mashinasi berildi.

To‘garakka qatnayotgan qizlarga ikki oy ichida fartuk, shapkachalar tikishni o‘rgatdim, - dedi oliy toifali mehnat o‘qituvchisi Zebiniso Muhammadiyeva. – Qizlar tikishni ancha o‘rganib oldi, endi biron tadbirkor topib, buyurtma asosida ishlashni yo‘lga qo‘ymoqchimiz.



Ushbu maktab 7-sinf o‘quvchilariga ikkinchi xorijiy til sifatida yapon tilini o‘rgatishni yo‘lga qo‘yibdi.

- Maktabda ingliz tilidan dars bersam-da, Yaponiyada magistraturani bitirib kelganman, - dedi maktab o‘qituvchisi Zuhro Bo‘ldiyeva. – O‘quvchilarga joriy o‘quv yilidan yapon tilini o‘rgatypman. Hozircha 20 nafar o‘quvchi to‘garakka qatnashyapti.

Tumandagi 39-umumiy o‘rta ta’lim maktabida duradgorlik, tikuvchilik to‘garaklari ish boshlabdi.

- Shu yil “Tashabbusli budget”dan 1 milliard 200 million so‘m pul yutdik, - dedi maktab direktori Dildora Habibova. – Ushbu pulga aynan kasb-hunar to‘garaklariga mo‘ljallangan bo‘limni ta’mirlayapmiz. Ta’mirlash ishlari dekabr oyida tugatiladi. Shundan so‘ng tumandagi “Zulfiyaxonim” korxonasi bilan hamkorlikda ishlaymiz. Ular tikuv mashinalarini yetkazib beradi. Buyurtma asosida mahsulot tikib beramiz. Duradgorlik uchun ham alohida xona tayyorlab, jihozlashni rejalashtirganmiz. Hozircha o‘quvchilarga nazariy darslar o‘tilyapti.

Ushbu maktabda 28 nafar o‘quvchiga ikkinchi xorijiy til sifatida nemis tili o‘rgatilyapti.

O‘rganishlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, maktablarda 10-, 11-sinf o‘quvchilari uchun kasb-hunar to‘garaklari ochilgan. O‘quvchilarning xohishiga ko‘ra, turli kasblar o‘rgatilyapti. Qolgan maktablarda ham bosqichma-bosqich yuqori sinf o‘quvchilariga kasb-hunar o‘rgatish ishlari yo‘lga qo‘yladi. Ammo ba’zi ota-onalar farzandi kelajakda oliy ta’lim muas-sasasiga o‘qishga kirishi, unga kasb o‘rgatish kerak emasligini aytishyapti ekan. Hunar o‘rganishning nimasi yomon? Ertaga mustaqil hayotga qadam qo‘ygan farzand hech kimga boqimanda bo‘lmaydi, o‘z aravasini o‘zi tortadi. Masalan, o‘g‘il bolalar ko‘chatchilikni o‘rgansa, ertaga tomorqasidan unumli foydalanadi yoki duradgorlikni o‘rgansa, uydagi ro‘zg‘or buyumlarini tuzatadi. Qiz bolalar uchun tikish-bichish, to‘qish kabi ishlar doim kerak.

Fikrimizcha, maktablarda o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatish bilan birga yapon maktablari singari maktab tozaligini ham o‘zlari bajarishsa, tartibli va intizomli avlod tarbiyalardik.

X.ERGASHOVA.

DO‘KONDAN MUDDATI O‘TGAN MAHSULOT SOTIB OLSANGIZ, NIMA QILASIZ?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Meni hayron qoldirgani ruslar har bir mahsulotning yaroqlilik muddatini tekshirib, keyin sotib oladi. Saqlash muddati kam qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini olmaydi. Ayniqsa, biz umuman e’tibor qilmaydigan makaron mahsulotlarining ham muddatiga qarab, keyin oladi. Ba’zida xaridor hech narsa sotib olmasa-da, mahsulotlarni ko‘zdan kechirib, ularning “svejiy” ekaniga ishonch hosil qilib ketadi. Qisqasi, aholining o‘zi do‘konlardagi oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilib turadi. Hatto bolalariga ham shunday tarbiya bergan, ular do‘kondan muzqaymoq sotib olsa ham yaroqlilik muddati qayerga yozilganini so‘raydi.

Rossiyadagi katta supermarketlarda har bir bo‘limda ishlovchi xodim yangi mahsulotlarni bo‘shagan joyga terishdan oldin qolganlarining muddatini tekshirib chiqadi va yangilarini o‘rta tomonga teradi. Sababi, birinchi oldin keltirilganlari sotilishi kerak. Agar supermarketga tekshiruvchilar kelib, muddati o‘tgan eski mahsulotni sotuvga qo‘yilganligini aniqlasa, katta jarimaga tortiladi.

Muddati o‘tgan mahsulotlarni do‘kondor tashlab yuboraversa, u qanday foyda ko‘radi, deyingingiz mumkin. Do‘kon egasi deyarli hech qanday mahsulotni tashlab yubormaydi. Muddati o‘tgan mahsulotlarni ishlab chiqargan firma vakillari olib ketadi. Buning uchun muddati o‘tgan mahsulot savdo rastasidan olib qo‘yiladi va o‘sha firma vakili buyurtma olishga kelganida unga aytiladi.

Raqobat kattaligi uchun tadbirkor sotilmay qolgan mahsulotni o‘rniga yangisini beradi. Shunday qilmasa, do‘kondor uning mahsulotini sotib olmaydi. Shuningdek, mahsulotlari tez sotilib ketayotgan firmalar bonus shaklida ayrim mahsulotlarini tekinga beradi. Masalan, do‘konda muzqaymoqlar tez sotila boshlasa, firma ikki-uch korobka (ichida qirqqa yaqin muzqaymoq bo‘ladi) muzqaymoqni bo-

nusga bepul beradi.

Shuningdek, Rossiyada har bir oziq-ovqat mahsulotining qadog‘ida tarkibi, yaroqlilik muddati, firma manzili, telefoni yozilgan bo‘ladi. Bizdagidek qayerda tayyorlangani, tarkibi, yaroqlilik muddati ko‘rsatilmagan oziq-ovqat mahsulotlari sotilmaydi. Iste’molchilar o‘z haq-huquqini yaxshi biladi, ularga muddati o‘tgan mahsulotni sota olmaysiz. Xo‘sh, bizda-chi? Aholining deyarli sakson foizi sotib olayotgan mahsulotining muddatiga qaramaydi. Hatto ba’zilar unda yaroqlilik muddati yozilganini ham bilmaydi. Ko‘chada sotilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Shuning uchun keyingi paytda aholi orasida ovqatdan zaharlanish holatlari ko‘p uchramoqda. Ayniqsa, bog‘cha bolalariga sotib olinayotgan mahsulotlarning saqlanish muddati tekshirilmagani bois ko‘plab bolalar kasalxonalarga yotqizildi.

To‘g‘ri, aholining ko‘p qismi hali iste’molchi sifatida o‘z haq-huquqini talab qilishni bilmaydi, lekin do‘konlardagi oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini nazorat qiluvchi istemolchilar huquqlarini himoya qilish agentligi bu borada qanday ishlarni olib bormoqda? Agentlik yil davomida qancha do‘konni tekshirgan? Qanchasidan iste’molga yaroqsiz mahsulotlarni topgan? Ushbu savollar bilan Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi viloyat bo‘limiga murojaat qildim. Agentlik xodimi yil davomida do‘konlarda muntazam tekshiruv o‘tkazilishi, ammo tekshiruvlar haqida hisoboti yo‘qligini aytdi. Shuningdek, ushbu agentlik do‘kon egalari faqat ogohlantira olishi, ularga nisbatan hech qanday chora ko‘ra olmasligini bildirdi.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi tomonidan olib borilayotgan ishlar monitoring qilib borilmasa, haqiqatan ham ularning ishlayotganini kim biladi? Tabiiyki, aholining 50 foizi bunday tashkilot borligini bilmaydi ham.

- Biz faqat sanitariya-epidemiologik



osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining viloyat boshqarmasi xodimlari bilan tekshirishga chiqsak, do‘konlardan muddati o‘tgan mahsulotlarni olib qo‘ya olamiz, - dedi agentlik xodimi. – Sababi, ushbu tashkilot do‘konlardan muddati o‘tgan mahsulotlarni olib qo‘yishga haqli. Bizda esa do‘kon egasining muddati o‘tgan mahsulotlarni olib qo‘yish, tadbirkorni javobgarlikka tortish kabi vakolatlar yo‘q. Biz faqat holat haqida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining viloyat boshqarmasiga xabar bera olamiz, xolos. Bu muammoni hal qilishning yagona chorasi jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi kerak.

Demak, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish borasida hali islohotlar amalga oshirilishi, yuqoridagi muammolarning yechimiga chora izlanishi kerak. Hali bu borada bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar taylagina ekan.

Bizda ham tadbirkor eski mahsulotini yangisiga almashtirib beradi

Istaymizmi-yo‘qmi, bugun do‘konlarda oziq-ovqat mahsulotlarining muddati o‘tib ketganlarini topish qiyin emas. Avvaliga men tadbirkorlar muddati o‘tgan mahsulotini qaytarib olmasa kerak, deb o‘ylagandim. Surishtirsam, bizda ham har bir mahsulotning raqobatchisi ko‘pligi bois muddati o‘tgan mahsulotlarni tadbirkor yangisiga almashtirib berarkan. Faqat

aholining e’tiborsizligi, sotib olayotgan mahsulotining saqlash muddatini surishtirmasligi bois sotuvchilar ham tadbirkorlarga eski mahsulotni qaytarib bermaydi. Qisqasi, sotuvchi har bir mahsulotning saqlanish muddatini ham tekshirib chiqmaydi.

Bundan 5-6 yil avval O‘zbekistonga kelin bo‘lib tushgan xorijlik qiz eriga: “Nega sizlarda odamlar mahsulotlarning saqlanish muddatiga qaramasdan sotib olaveradi, ular ovqatdan zaharlanmaydimi?”, deb so‘raganida “Bizda hech kim ovqatdan zaharlanmaydi”, degan ekan. Ammo bugun zamon o‘zgardi, ekologiya buzildi. Haqiqatan ham bir vaqtlar uncha-muncha narsaga zaharlanmaydigan sog‘lom aholi bugun saqlanish muddati o‘tgan mahsulot iste’mol qilolmaydi. Buni endi odamlar tushunishi, yangicha fikrlashi, zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak.

Yangi yil bayrami arafasida bozorlar atrofi turli qandolat mahsulotlariga to‘lib ketadi. Aholi bayram dasturxoniga sotib olayotgan tort mahsulotining tarkibi, muddati, kim tayyorlagani bilan qiziqmaydi. Aksincha, cho‘ntagi ko‘tarsa bo‘ldi, sotib olib ketaveradi. Bizda azaldan mana shunday tarzda savdo qilinadi. Endi avvalgidek yuzda issiq ko‘ringan kishining mahsulotini sotib olib ketish yaramaydi. O‘zi, farzandlari va oilasining sog‘lig‘iga befarq bo‘lmagan har bir kishi oziq-ovqat mahsulotlari sotib olayotganda uning muddatiga e’tibor berishi shart. Agar mahsulotda yetarlicha ma’lumotlar yozilmagan bo‘lsa, sotuvchi bu haqda xaridorga ma’lumot berishi kerak.

Shuningdek, yaroqlilik muddati yozilgan yozuvlar uncha-munchaga o‘chib ketmasligini ham unutmang. Haqiqiy firma mahsulotlarida bunday yozuvlar o‘chib ketmaydi. Hatto muzlatkichda saqlanadigan mahsulotlarda ham yaroqlilik muddati o‘chmaydigan qilib yozilgan bo‘ladi.

Mabodo, muddati o‘tgan mahsulotni bilmasdan sotib olib kelsangiz, Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi Samarqand viloyat bo‘limining 233-01-13 ishonch telefoniga yoki Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Call markazining qisqa raqami 1159 ga murojaat qilishingiz mumkin.

Xurshida ERNAZAROVA.

MAJBURIY IJRO BYUROSII

FAQAT UNDIRUVCHI TASHKILOT EMAS...

Aksariyat hollarda MIB deyildimi, qaysidir qarzdordan undiruvchiga nimadir olib beruvchi idora tushuniladi. To'g'ri, faoliyatning katta qismi ayni shu masalaga qaratilgan. Ammo davlat tashkiloti o'laroq Majburiy ijro byurosi ham xizmat vazifalari doirasida xalqqa xizmat qilib kelmoqda.

Misol uchun, <https://mib.uz/home> saytimizga kirib ko'ring: qarzdorlik va cheklovlarni tekshirish bilan birga alimentlar kalkulyatori va ijro monitoring xizmatlaridan foydalanishingiz mumkin. Ayni shu joydan qayta ijroga topshirish ham mumkin.

Bundan tashqari, saytda MIB boshqarma va bo'limlari faoliyati haqidagi yangiliklar sizni befarq qoldirmasligi, shubhasiz. Shu o'rinda yana bir onlayn xizmat turini alohida aytib o'tish o'rinli, chunki bu nafaqat yuridik, ayni damda jismoniy shaxslar uchun manfaatli bo'lishi mumkin.

Hamkoringiz kimligini bilasizmi?

Biror bir yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs bilan hamkorlik qilmoqchimisiz? Deylik, yuridik shaxsdan biror mulk olmoqchisiz yoki boshqa bir insonga qarz bermoqchimisiz? Bunda albat, o'sha fuqaro yoki korxonaga nisbatan biror ijro ishi bo'lganmi-yo'qmi, agar bo'lsa, kimlardan qarzdor ekanligi tabiiyki, qiziq. Buni bilish uchun quyidagi ishlarni bajarasiz:

Agar sizni qiziqtirayotgan fuqaro bo'lsa, o'sha fuqaroning pasport seriya va raqamini bilsangiz yetarli. Mib.uz saytiga kirib, "Bo'lajak hamkoringizni bilasizmi?" bo'limida tegishli o'rinlarga pasport seriya va raqamini kiritasiz, soniyalarda javob chiqarib beriladi.

Mabodo bo'lajak hamkoringiz yuridik shaxs bo'lsa ham u haqida bilish siz uchun muammo tug'dirmaydi. Korxonaning STIR (soliq to'lovchining identifikatsion raqami)ni aniqlaysiz (buni ham internet orqali bilib olish mumkin). Saytimizga kirib, yuqorida qayd qilingan bo'limda STIR raqamini kiritasiz, ko'p o'tmasdan, ushbu yuridik shaxsga nisbatan ijro ishi ochilganmi-yo'qmi, bilib olasiz.

Munosabatlarga kirishmoqchi bo'layotganingiz xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, u haqda yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish hech qachon zarar qilmaydi.

Do'stbek SULAYMONOV.

Samarqandlik sportchilar jahonda tengsiz

Armaniston poytaxti Yerevan shahrida o'tkazilgan boks bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatini vakillarimiz 4 ta oltin, 3 ta kumush va 4 ta bronza medal bilan yakunladi.



Musobaqada 57 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilgan Kattaqo'rg'on shahar sport maktabi tarbiyalanuvchisi Sevara Mamatova finalda hindistonlik raqibini mag'lub qilib, jahon chempionligini qo'lga kiritdi.

46 kilogramm vaznda ringga ko'tarilgan ishtixonlik bokschi Maftuna Musurmonova esa kumush medalga sazovor bo'ldi.

Yaponiya poytaxti Tokio shahrida paradzyudo bo'yicha Gran-pri turniri bo'lib o'tdi.



40 ga yaqin davlat paradzyudochilari ishtirok etgan turnirda O'zbekiston terma jamoasi 3 ta oltin, 1 ta kumush va 4 ta bronza, jami 8 ta medal bilan umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Musobaqada samarqandlik paradzyudochi Kemran Nurullayev oltin medalni qo'lga kiritdi.

Ijodkor yoshlar saralandi

Samarqand shahridagi Markaziy harbiy okrug ma'naviyat va ma'rifat markazida "Vatan taraqqiyotiga mening hissam" nomli respublika tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar "Tasviriy va amaliy san'at", "Adabiyot", "Milliy maqom va milliy estrada" yo'nalishlarida iqtidorlarini namoyish qilishdi.

- Ilm-fan, san'at va madaniyat, zamonaviy axborot texnologiyalari, badiiy ijod sohalarida faoliyat yuritayotgan va yuqori natijalarga erishayotgan iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni munosib rag'batlantirish tanloving asosiy maqsadi, - deydi Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Farhod Nazarov. - Shuningdek, iste'dodli va tashabbuskor yoshlarning ushbu sohalardagi salohiyatini namoyon qilishi, yuqori natijalarni qo'lga kiritishi uchun imkoniyatlar yaratish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat.

Tanlovda barcha yo'nalishlar bo'yicha g'oliblar aniqlanib, uning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Shuningdek, faol ishtirokchilar va turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritganlar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

ZILZILA SODIR BO'LGANDA, NIMA QILISH KERAK?

Zilzila yerning ichki harakatlari natijasida uning yuzasida paydo bo'ladigan tebranma harakat bo'lib, vulqonli, ko'chkisimon, tektonik va texnogen turlarga bo'linadi. Xo'sh, zilzila sodir bo'lganda nima qilish kerak va undan qanday himoyalalanish mumkin?

Bu haqda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida "O'zgarolizning" aksiyadorlik jamiyati tomonidan "Zilzila va uning oqibatlari, mehnat faoliyati davomida texnik xavfsizlik qoidalari va ularga amal qilish" mavzusida o'tkazilgan seminarida batafsil ma'lumot berildi.

Seminarida jamiyatning markaziy apparati, hududiy filiallar mas'ullari, tizim korxonalari xodimlari hamda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ishtirok etdi.

- Yer silkinishining paydo bo'lgan joyi zilzila o'chog'i, uning markazi esa gipotsentr hisoblanadi, - deydi fuqaro muhofazasi instituti o'qituvchisi X.Azimov. - Zilzila kutilmagan vaqtda sodir bo'lishini hisobga olib, u kuzatilganda bajarilishi kerak bo'lgan ishlar oldindan belgilab qo'yilishi kerak.

Zilzila vaqtda uy yoki baland bino ichida bo'lganlar ko'proq xavf ostida bo'ladi. Bunday vaziyatda uydagi xavfsiz joylar xonaning asosiy devorlari orasidagi burchagi, ichki eshiklar o'рни, stolosti, yumshoq mebel hisoblansa, eng xavfli joylar ichki va tashqi deraza ostlari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlari, ayniqsa, oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalar, lift va zinapoya maydonchalari bo'lishini hisobga olish shart.

Ko'p qavatli uylar va imoratlarining birinchi qavatidan yuqorida bo'lganda, hech qachon lift yoki

zinapoyalarga qarab yugurmaslik kerak. Chunki ko'p hollarda zilzila vaqtda ushbu qurilmalar birinchi navbatda qulaydi. Bunday hollarda uyning eshigini ochib, uning kesakisida turgan ma'qul. Shuningdek, ko'p qavatli uyning birinchi qavatida, g'isht yoki paxsa devorli uylarda zilzila boshlanishi bilan 15-20 soniyada darhol undan tashqariga chiqib ketish, elektr simlari, gaz quvurlari va baland imoratlar tagidan uzoqroqdagi ochiq joyga o'tish tavsiya etiladi.

Seminar davomida aholi turarjoylarini yong'in xavfsizligi talablariga mos holga keltirish, korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari hamda fuqarolarning yong'in xavfsizligi qoidalari rioya etish borasidagi mas'uliyatini oshirish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlar va yong'inlarning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Temur SHODIYEV.

Inson hayotda bilim va ma'rifat o'rgatgan, qalbiga yuksak insoniy fazilatlarini singdirgan ustoziga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi. Ustozimiz tilshunos olim Usmon Sanaqulovni eslaganimizda biz uchun chekkan zahmatlarini yodga olib, u kishidan bir umr qarzdorligimizni his etamiz.

ONA TILIMIZ JONKUYARI EDI

Usmon Sanaqulov 1940-yilda Buxoro viloyati G'ijduvon shahrida tug'ilgan. 1958-yilda Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirgan.

Universitetni bitirgach, ish faoliyatini Samarqand davlat pedagogika institutida boshlab, 20 yil ushbu dargohda mehnat qildi. So'ngra Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Samarqand davlat chet tillar institutida kafedra mudiri, dotsent, professor lavozimlarida ishladi.

U dastlabki ish faoliyati davrida o'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi va funksional-pragmatik xususiyatlari, matn tilshunosligi bo'yicha talabalarga dars berdi.

Usmon Sanaqulov 2010-2013-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida tadqiqotlar bo'yicha tayinlanadigan ekspert komissiyasi tarkibida ham qatnashib keldi. 2008-2012-yillarda SamDU huzuridagi ixtisoslashgan kengash seminari a'zosi va davlat attestatsiya komissiyasi raisi vazifasini bajardi.

U.Sanaqulov kafedra qoshidagi ilmiy seminarini boshqarib, iqtidorli talabalarining ilmiy ishlariga rahbarlik qildi. O'quv jarayonini ilmiy va uslubiy jihatdan ta'minlashda o'quv-uslubiy qo'llanma va tavsiyanomalar, ilmiy-uslubiy maqolalari bilan munosib hissa qo'shdi. Uning bevosita ishtiroki va rahbarligida majmualar va ishchi dasturlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratildi.

Jumladan, uning tashabbusi bilan "Qadimgi yozuvlar va eski o'zbek alifbosi" monografiyasi, "O'zbek adabiy tili tarixi" o'quv qo'llanmasi, "O'zbek yozma adabiy tili tarixi" monografiyasi va "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi", "O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari" o'quv qo'llanmalari nashr etildi. Shuningdek, u doktorlik dissertatsiyasi asosida "O'zbek tili tarixi"



darsligining va ikki qismdan iborat o'zbek tili tarixining ilk davrlari bo'yicha monografiyasi, "Toponimlar tarkibidagi etnonimlar" o'quv-uslubiy qo'llanmasi, "O'zbek tili", "Fonografik yozuvlar va ularning shakllanish tarixi" kabi o'quv-uslubiy qo'llanmalar yozdi.

Olim viloyat va shahar hokimligi huzuridagi Joy nomlarini muvofiqlashtirish kengashi a'zosi hamda viloyat "Zarafshon" gazetasining jamoatchi muxbiri sifatida ushbu yo'nalishda qator maqolalari yozdi.

U.Sanaqulov qayerda ishlamasin, talabchan murabbiy sifatida e'tibor qozondi. Milliy tilimizni rivojlantirishga, tarixiy ildizlarini o'rganishga harakat qildi. Agar hayot bo'lganida bugun ustozimiz 84 yoshni qarshilagan bo'lar edi.

Jonkuyar tilshunos olim, fidoyi ustoz Usmon Sanaqulovning xotirasi qalbmizda abadiy yashaydi!

To'lqin MARDIYEV, O'tkir OSTONOV, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsentlari.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

QUTLOV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali rahbari, iqtisod fanlari doktori, professor Olim Murtazayev 71 yoshga to'ldi. Shu munosabat bilan ustozni tabriklab, u kishiga mustahkam sog'lik, oilaviy xotirjamlik, ilmiy faoliyatida muvaffaqiyat tilaymiz. Qadrli Olim Murtazayev! Siz butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan ziyoli, ma'rifatparvar inson sifatida 54 yildan buyon soha rivojiga hissa qo'shib kelmoqdasi. Sizning zahmatli mehnatlaringiz samarasi o'laroq, bugun vatanimiz taraqqiyoti yo'lida mehnat qilib kelayotgan yuzlab shogirdlar yetishib chiqqan.

Yoshlarga ilm berish bilan birga 1 nafar fan doktori, 5 nafar fan nomzodi va falsafa fanlari bo'yicha fan doktoriga rahbarlik qildingiz. Sizning muallifligingizda chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalar bugun talabalarga dasturlamal bo'lmoqda.

Yosh avlodni vatanimizga munosib inson etib tarbiyalash yo'lida olib borayotgan e'zgu ishlaringizda muvaffaqiyat, ilmiy va kasbiy faoliyatingizda omad tilaymiz!

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI JAMOASI.

DA'VOLAR BO'LSA...

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki kuzatuv kengashining 2023-yil 6-maydagi 29-sonli majlis bayoniga asosan, bosh bankning yagona bank kodiga (00433 MFOga) o'tkazish munosabati bilan bankning Samarqand viloyati Samarqand shahri, Lutfiy ko'chasi, 15/17-uy (pochta indeksi 140101) manzilida joylashgan "Amaliyot bo'limi" tugatilib, uning o'rnida "Samarqand" bank xizmatlari ofisi (BXO) tashkil etilganligini ma'lum qilamiz.

"MIKROKREDITBANK" ATB SAMARQAND VILOYATI MINTAQAVIY FILIALI MA'MURIYATI.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ochilov Xoljigit Turdiyevichga (2022-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Yusupova Buvraga (2020-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-

mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Abdullayeva Xosiyatga (1988-yil 11-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Djabbarov Lutfillo Muradovichga (2018-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola

Zoirovna notarial idorasida marhum Murodova Xusniyaga (2020-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Xamdov Sotiboldiga (2023-yil 7-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Nazarova Ruxsora Negmatovnaga (2021-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

BEKOR QILINADI

Fuqaro Xodjayev Xozid Botirovichga qarashli Samarqand tumani "Chumchuqli" MFYda joylashgan issiqxonaning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "ALIBEK STROY ISHONCH" xususiy korxonasi

(STIR: 306158423) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Narziyev Toxirjon Abdurazikovichning (Pasport AB 7328038) haydovchilik guvohnomasi Toyloq tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99894-866-45-01.

Shartnoma asosida harbiy xizmatchi Kurbonnazarov Asamatdin Begmurotovichning (Pasport KA 0827603) xizmat guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99888-810-64-64.

YOLGʻIZOYOQ YOʻL


QAYUM SOBIROV IJODIGA BIR NAZAR

Ijodkorlar koʻpincha oʻz yutuqlarini oddiy hayotiy hodisa deb qaraydi, buning uchun na ragʻbat va na rahmat istaydi. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi Qayum Sobirov ham ana shunday qalbi keng, el xizmatiga har doim kamarbasta ijodkor. Ammo ijodkor insondan qadr, mulohaza hamda mushohadalar kutishi tabiiy. Aslida ham har qanday ijodiy ish adabiy jamoatchilik tomonidan baholanishi lozim.

Qayum Sobirov koʻpchilik adabi-yot, ijoddan uzoq deb bilgan, aniq hisob-kitoblarga asoslangan sohada mehnat qilsa-da, maktab ostonasidan boshlangan ijodga qiziqish uni bir zum ham tark etmadi. Dastlab uning kichik hikoyalari, keyinchalik esa publitsistik maqolalari ommaviy axborot vositalari-da eʼlon qilindi. 2019-yilda “Otamning izlari”, 2021-yilda “Yolgʻizoyoq yoʻl” nomli toʻplami nashr etilishi masʼuliyatli lavozimlarda ishlab kelayotgan Q.Sobi-rovni ijodkor sifatida elga tanitdi. Muallifning hikoyalari-da har bir voqea, hodisa va jarayonlarning yangi kutilmagan betakror tomonlarini topa bilish qobiliyatini payqaysiz. Undagi bevosita davrimiz va siyosiy jarayon-ning eng dolzarb masalalariga bagʻish-langan maʼnaviy, ilmiy va ijtimoiy hayo-timizning ruhiy muammolarini yorituvchi hikoyalari-da tasavvufiy bilimlar omux-taligi oʻquvchining eʼtiborini tortadi. Ijodkor bu bilan bugungi adabiy jara-

yonga ilmiy-maʼrifiy manbalar, hadis va Qurʼon oyatlarini olib kirishga intilishi, undan oʻrinli foydalanishi oʻzbek mum-toz adabiyoti namunalarining magʻzini, maqsadini ifoda etadi. Alisher Navoiy-dan Abdulla Qodiriygacha boʻlgan oʻzbek adabiyoti oʻz sehri bilan har bir davr kishisini hayratga soladi. Islom odob-axloqi va goʻzal xulqi bilan be-zatilgan bu asarlar asrlar osha yashab kelmoqda. Qayum Sobirovning asar-larida ham ana shu ruh seziladi, shu maqsadga intilishi bor. Adibning voqeyi va tarixiy esdaliklar ruhida yozilgan “Hayrat ogʻushida” nomli hikoyasi ana shunday voqelikni talqin etishi bilan bugungi adabiy jarayondagi yanglik hisoblanadi. Uning asarlari kitobxonni maʼnaviy va ruhiy poklanishga chaqira-di. Har qanday mummo – u bir kishiga yoki butun jamiyatga aloqador boʻlsin, uning yechimi ayni shunda deb biladi. Ayniqsa, “Yolgʻizoyoq yoʻl” qissasini oʻqir ekansiz, Mavluda obrazi orqa-

li oʻtmish va bugungi kishilar taqdiri qiyoslansa, Muyassar aya hikoyasi millatning iztirobli tarixini bus-butunicha hikoya qiladi. Qayumjon ibratli oilada tarbiya topgan. U yoshlik yillarini baxtli bola-lik davrlari sifatida taʼriflab, mahdudlik davri kishilari taqdirini tahlil qilish bilan birga, qadimiy merosdan teran maʼno va hikmatlarni yaxshi anglab, ularni asar holida keng kitobxonlarga yetkazadi. Qayum Sobirovning “Vatanni sevmogʻ iymondandir”, “Olqish va qargʻish”, “Jazo”, “Kibr va qasos”, “Momo” kabi hikoyalari-da engan maʼnolar kishini hushyorlikka daʼvat qiladi, befarqlik tanazzulga olib kelishi haqida ishoralar beradi. Uning “Vatanni sevmogʻ iymondandir” hikoyasida sayohat taassurotlari orqali Imom Buxoriy, Norinjon ota kabi ziyo-ratgohlarning maʼnaviy hayotimizdagi oʻrni haqida mushohada yuritadi. Adib-ning “Hayrat ogʻushida” hikoyasi yosh-




lar tarbiyasi uchun oʻta muhim. Muallif bu hikoyasida insonga Qurʼoni karim-ning “Isro” surasida berilgan bahoni keltiradi. Rasul Hamzatovning insonga berilgan taʼriflarini keltirish bilan esa oʻz qarashlarini asoslaydi. Qayum Sobirovning asarlarida inson hayotidagi keng, yorugʻ, ravon yoʻllar hamda birgina oʻzi, yolgʻiz holat-da bosib oʻtishi kerak boʻlgan yoʻllar haqidagi qiziqarli hikoyalar oʻrin olgan. **Akbarxon ASROROV, SamDU Urgut filiali oʻqituvchisi.**

"Umr karvoni"

Ishq ilohiydir. Qachonki koʻngil kosasiga ishq mayi quyilar ekan, ruh bezovtalanadi, alangaga aylana-di, beixtiyor uchqunlari atrofga sachraydi, sheʼrga aylanib, boshqa koʻngillarga ham koʻchadi. Shu bois ijodkorlarni koʻpincha Qaqnusga mengzaydilar.

Daftar chiziqlari - joʻyaklar,
Ularga soʻzlardan dur sochdim.
Kun kelib, Ezgulik oyoqlar,
Bilsaydim, qay dilga nur sochdim.
Samarqandlik Toshpoʻlat Oʻrxunning “Surur” nomli kitobi ijodkor umrining mazmu-ni aks etgan ushbu satrlar bilan boshlangan. Toshpoʻlat Oʻrxun Samarqand adabiy muhi-tining koʻzga koʻringan vakillaridan. Yurtimiz ahli uni “Mujda”, “Kechikkan javzo” nomli sheʼrlar toʻplamlari, “Bir kuni muxbirlar...”, “Qalamni qadrlab”, “Tanish chehralar”, “Umr ziynati”, “Qahramonlar mangu yashaydi” kabi publitsistik asarlari orqali shoir, publitsist, tarjimon sifatida yaxshi taniydi, sheʼrlarini sevib oʻqiydi. Yaqinda Toshkentdagi “Ijod nashr” nashriyotida shoirning “Surur” hamda “Umr karvoni” kitoblari chop etildi.Bu kitoblarda shoirning keyingi yillarda yozilgan sheʼrlarining kiril va lotin alifbo-sida berilishi katta va kichik yoshdagi kitobxonlarga maʼqul boʻldi. Sheʼrlardagi kutilmagan tashbehlar, nozik sifatlashlar oʻquvchini hayratga soladi.





SAMARQANDIM

Devorlaring qat-qatida yotar zamonlar,
Binolaring tarh-koʻrkida yashar mezonlar,
Minorlaring har naqshida yashnar boʻstonlar,
Kamalakdek ming turlangan ey, ona shahrim,
Marvariddek jilvalangan durdona shahrim – Samarqandim!
Koʻhna tarix sarhadlari sendan boshlanur,
Qadim Turon sifatleri sendan boshlanur,
“Boburnoma” suhbatlari sendan boshlanur,
Sen azaldan bagʻri kengsan mavlono shahrim,
Tugamagan navo sensan alloma shahrim – Samarqandim!

Qanotingda Temur bobom jahon topmishdur,
Ulugʻbekdek buyuk zotlar osmon topmishdur,
Yana qancha shoh-gadolar makon topmishdur,
Ulugʻlarga makon boʻlgan ostona shahrim,
Birovlarga armon boʻlgan mastona shahrim – Samarqandim!

Taxtlar talosh boʻlsa, kuling toqqa aylandi,
Chekkalarning azob birla ohga aylandi,
Osmoning tinch boʻlsa, bogʻring bogʻga aylandi,
Bogʻ-chamanda kamol topgan koshona shahrim,
Jahon ichra sayqal topgan shohona shahrim – Samarqandim!

Ibtidoing buyuk asli, hamon buyuksan,
Shundan balki elimga ham jonday suyuksan.
Sen avlodlar taqdirida zarhal bitiksan,
Ertaklardan yaralgan ey, afsona shahrim,
Tilaklardan quralgan ey, sharqona shahrim – Samarqandim!



Tolib JOʻRAYEV,
filologiya fanlari nomzodi.

SOGʻINCH

Izlaring axtarib chamanlar kezsam,
Chamanday yonogʻing esladim dildor.
Togʻlarda sayr etib, lolalar uzsam,
Loladay dudogʻing esladim dildor.

Daralar qoʻynida buloqlar koʻrsam,
Tip-tiniq koʻzlaring koʻzimga indi.
Qirlarda yuzimni quyoshga bursam,
Nim iliq yuzlaring yuzimga tegdi.

Sharshara toʻsh ursa, toshlarga sim-sim,
Toʻlqinli sochlaring yodimga tushdi.
Qaldirgʻoch charx ursa, tegramda bir zum,
Qayrilma qoshlaring yodimga tushdi.

Qaylarni kezmayin qaroshing topib,
Diydoring koʻrganday quvondim, yondim.
Tabiat qoʻynida oʻxshashing topib,
Oʻylama, dildorim, men sendan tondim.

Yuz tutib, togʻu tosh, chaman gullarga,
Sogʻinib suvrating tikladim bir bor.
Lek seni alishmam, aslo ularga,
Bor yoʻgʻi sen yorni yoʻqladim bir bor.

YONADUR

Koʻzlar qaro koʻzlarga qadalganda yonadur,
Yuragimda soʻngan ishq, qaytadan oʻygʻonadur.

Vujud yonar, dil yonar, atrofimda gul yonar,
Ammo ishqning koʻzlari yona-yona qonadur.

Bu koʻzlarda ne siru, ishqda bor ne sinoat,
Sherdek magʻrur, yovqur jon, oʻzligidin tonadur.

Suzuk koʻzlarda vah-vah, ishq aksini koʻrgan on,
Kuysiz, ohangsiz olam, kuy boʻlib toʻlgʻonadur.

Bir juft qaro choʻgʻni deb, qaro boʻldi koʻzlarim,
Netay yaro boʻlsa ham dilginam parvonadur.

Vayrona boʻldi borim, nigohingga bogʻlanib,
Lek koʻzlaring yoʻqotsam, ishq qasri vayronadur.

Har boqishing yangi bayt, oʻqimoqqa imkon ber,
El desin mayli shoir, Samimiy devonadur.

Abdul Vali SAMIMIY

DUNYO MAMLAKATLARI KONSTITUTSIYALARI

Koʻpchilik dunyodagi birinchi konstitutsiya AQSHda ishlab chiqilgan, deb hisoblaydi, ammo unday emas. Eng qadimgi konstitutsiya 1791-yilda Polshada, fransuzlardan olti oy oldin qabul qilingan.

Yevropaning eng zoʻr allomalari uch yil davomida Yevropa Ittifoqi konstitutsiyasi ustida ishlagan. Hujjat 2004-yil iyun oyida Yevropa Ittifoqining maxsus sammitida tasdiqlangan. Bu konstitutsiya bir vaqtning oʻzida 20 tilda yaratilgan va dunyodagi eng toʻla va keng qamrovli qomusga aylangan. Biroq umumyevropada oʻziga xoslik paydo boʻlishiga hissa qoʻshish unga "nasib etmadi" - Yevropa mamlakatlarida oʻtkazilgan milliy referendumlarda yetarli ovoz toʻplay olmadi.

Dunyodagi eng yirik asosiy qonunga aylangan Hindiston Konstitutsiyasi 1950-yilda qabul qilingan. U Buyuk Britaniyaning konstitutsiyaviy va huquqiy anʼanalari bilan birga AQSH, Irlandiya, Kanada, Avstraliya, SSSR, Germaniyadagi Veymar Respublikasi, Yaponiya va boshqa baʼzi mamlakatlar konstitutsiyalarining alohida qoidalarini ifodalaydi. Shu paytgacha 500 ga yaqin oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilgan.

Yaponiya konstitutsiyasida uchta asosiy tamoyil mavjud: xalq suvereniteti, asosiy inson huquqlarini hurmat qilish, pasifizm (millatning suveren huquqi sifatida urushdan voz kechish). Konstitutsiyaning urushdan voz kechishini belgilaydigan hujjatga aylanishi Ikkinchi jahon urushidagi mamlakat magʻlubiyatidan keyin sodir boʻldi. Yaponiya xalqi bundan buyon milliy suverenitetni amalga oshirish usuli sifatida urushdan voz kechadi, deyiladi hujjatda.

Buyuk Britaniya konstitutsiyasining oʻziga xos xususiyati – bu mamlakatning asosiy qonuni, deb atalishi mumkin boʻlgan yagona hujjatning yoʻqligi.

AQSH konstitutsiyasida “demokratiya” soʻzi tilga olinmagan.

Ekvador – dunyoda birinchi boʻlib tabiat huquqlarini konstitutsiya darajasida mustahkamlab qoʻygan davlat.

Malta konstitutsiyasi tinchlikka intilayotgan davlatini neytral deb eʼlon qiladi.

Gulnora XOLDOROVA
tayyorladi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

18-DEKABR
Olim MURTAZOYEV – 1952-yilda Jomboy tumanida tuʻilgan. Iqtisod fanlari doktori, professor.

20-DEKABR
Usmon SANAQULOV – (1940-2020) Gʻijduvon tumanida tugʻil-gan. Filologiya fanlari doktori.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 434 nusxada chop etildi. Buyurtma 678. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

D.TOʻXTAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda